# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**Ro'yxatdan o'tgan 31660**

2019-yilning 1-iyun holatiga 31660 ta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (14,4 %) ga o'sgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan 30307**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4145 ta (15,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 30307 tani tashkil etgan.

**Yangi tashkil etilganlar 2952**

2019-yilning yanvar-may oylarida Andijon viloyatida 2952 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan (51,6 %) 1005 taga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

## (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-iyun holatiga)**

31660 tani tashkil etdi

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birkikda**

**14,4%**

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati**




2019-yilning 1-iyun holatiga 31660 ta korxonalar va tashkilotlar ro’yxatdan o’tgan bo’lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,4 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha jamiga nisbatan 26,6 % savdo, 20,8 % sanoatda, 8,7 % qurilish, 6,4 % qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,8 % axborot va aloqa hamda 24,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

**(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

1. **2039** — qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi
2. **6593** — sanoat
3. **2758** — qurilish
4. **8415** — savdo
5. **1226** — tashish va saqlash
6. **1491** — yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
7. **585** — axborot va aloqa
8. **710** — sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar
9. **7843** — boshqa turlar

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

### (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

### (2019-yil 1-iyun holatiga)

Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 30307 tani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4145 ta (15,8 %) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

### (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Andijon shahri (10023 ta), Asaka (2810 ta), Andijon (2037 ta), Shaxrixon (1999 ta) va Oltinko'l (2601 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Xonobod sh. (495 ta), Ulug'nor (594 ta), Bo'z (748 ta) hamda Buloqboshi (787 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**2019-yil yanvar-may oylarida 2952 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo’lib, bu ko’rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1005 taga ko’pdir.**

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha ulushi, %

Savdo
38,7 %

Sanoat
28,2 %

Qurilish
10,8 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
4,1 %

Tashish va saqlash
3,2 %

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
3,7 %

Axborot va aloqa
1,6 %

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
1,8 %

Boshqa turlar
7,9 %

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko’p savdo (1143 ta), sanoat (833 ta), qurilish (318 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (122 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (46 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish (54 ta) hamda tashish va saqlash (95 ta) faoliyat turlari hissasiga to’g’ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## 2019-yil yanvar-may oylarida

| | |
|---|---|
| Qishloq , o‘rmon va baliq xo‘jaligi | 110 |
| Tashish va saqlash | 95 |
| Sanoat | 833 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 122 |
| Qurilish | 318 |
| Axborot va aloqa | 46 |
| Savdo | 1143 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 54 |
| Boshqa turlar | 231 |

# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahri (898 ta), Asaka (256 ta), Shaxrixon (231 ta) va Andijon (200 ta) tumanlari hissasiga to’gri keladi. Aksincha, Ulug'nor (36 ta), Xonobod sh. (54 ta), Bo'z (62 ta) hamda Buloqboshi (78 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko’rsatkichi past darajani aks ettirgan.






# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-iyun holatiga)**

**Faoliyat ko’rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 25541 tani tashkil qildi.**

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 254 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 70 taga yoki 38,0 % ga o’sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi hissalariga to’g’ri keladi.

**(2019-yil 1-iyun holatiga)**

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati %



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda






## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 136 tasi qo'shma, 118 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.**






## Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 98 ta (jamidagi ulushi 38,5 %), Andijon 22 ta (8,7 %), Shahrixon 17 ta (6,7 %) va Asaka tumanida 16 tani (6,3 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Ulug'nor 4 ta (1,6 %), Bo`z va Jalaquduqda 5 tadan (2,0 %), Xo'jaobod va Paxtaobod tumanlarida 6 tadan (2,4 %) tashkil etgan.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




**Ko’rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish, axborot va aloqa hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to’g'ri keladi.**



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 34 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilnign shu davriga nisbatan 20 taga ko'paygan.

Qirg'iziston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 7 ta, Rossiya Federatsiyasi - 6 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 4 ta, Turkiya Respublikasi - 4 ta, Koreya Respublikasi - 3 ta, Afg'oniston va Italiya Respublikasi - 2 tadan, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Birlashgan Arab Amirligi, Ukraina hamda Pokiston Islom Respublikasi davtlarida - 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan 17 ta sanoat, 5 ta qurilish, 4 tadan savdo hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 2 tadan axborot va aloqa hamda boshqa faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-iyun holatiga)**

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil 1-iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 25426 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 18,5 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-may oylarida 2854 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1329 taga ko'proqdir.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi, %

## •Eng katta ulushi

•Andijon shahri
35,1 %

•Asaka tumani
9,5 %

•Andijon tumani
6,9 %

•Shahrixon tumani
6,5 %

•Oltinko'l tumani
5,3 %

•Baliqchi tumani
5,0 %

•Izboskan tumani
4,6 %

•Marxamat tumani
4,5 %

## •Eng kichik ulushi

•Qo'rg'ontepa tumani
4,5 %

•Jalaquduq tumani
3,6 %

•Xo'jaobod tumani
3,4 %

•Paxtaobod tumani
3,2 %

•Buloqboshi tumani
2,4 %

•Bo`z tumani
2,3 %

•Ulug'nor tumani
1,7 %

•Xonobod shahri
1,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 25426 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 7948 ta (31,3 %) - savdo, 6238 ta (24,5 %) - sanoat, 2641 ta (10,4 %) - qurilish, 1878 ta (7,4 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1405 ta (5,5 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 1174 ta (4,6 %) - tashish va saqlash, 607 ta (2,4 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 549 ta (2,2 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2986 tasi (11,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %






Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo - 1143 ta, sanoat - 832 ta, qurilish - 318 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida - 122 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa - 46 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish - 52 ta, tashish va saqlashda - 95 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 110 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (861 ta), Asaka (246 ta), Shahrixon (229 ta) va Andijon (197 ta) tumanlari hissasiga to’g'ri keladi. Eng kam Ulug'nor (35 ta), Xonobod sh. (54 ta), Bo`z (59 ta) hamda Buloqboshi (72 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(2019-yil 1-iyun holatiga)







## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,%




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 44,9 % yoki 296 tasi sanoat, 20,1 % yoki 132 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 11,9 % yoki 78 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,5 % yoki 69 tasi savdo, 1,7 % yoki 11 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % yoki 8 tasi qurilish, 1,1 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 5 tasi axborot va aloqa hamda 7,8 % yoki 52 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Andijon viloyat statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:74-228-19-74**